IQTISODIY QAMAL SHAROITIDA QATAR VA TURKIYA MUNOSABATLARI

Azamat Fayzullayev,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
07.00.05 – Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi yo'nalishi 1-bosqich doktoranti
E-mail: azamatfayzullayev417@gmail.com

Ilmiy rahbar: Ikromov Shavkat Iskandarovich
PhD, dotsent

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20603748

Annotatsiya. *Geografik jihatdan Janubi-g'arbiy Osiyo mintaqasida joylashgan Qatar va Turkiya xalqaro munosabatlarda turli qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Chunki Turkiya mintaqaviy yirik kuch bo'lib, katta miqdordagi iqtisodiy va harbiy resurslarga ega. Qatar esa nisbatan kam harbiy imkoniyatlarga ega bo'lgan ambitsiyali kichik davlatdir. Shunga qaramay, 2011-yilgi arab bahori voqealari va bir qutblilikdan ko'p qutblilikka o'tish ikki tomonlama munosabatlarda yangi taraqqiyot uchun zamin yaratdi. Ushbu notinch voqealar arab olamini larzaga solganidan beri o'n besh yil ichida Qatar-Turkiya munosabatlari shu qadar rivojlandiki, bu har ikki davlat uchun strategik sheriklik ahamiyatiga ega bo'ldi. Ushbu maqolada 2017-2021-yillar oralig'ida Qatarning Saudiya Arabistoni, Misr, BAA va Bahrayn tomonidan iqtisodiy blokada qilinishi davrida kichik davlatning yirik kuch bilan hamkorlik yo'nalishi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *embargo, Qatar, Turkiya, Fors ko'rfazi, mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy blokada.*

Аннотация. *Географически расположенный в Юго-Западной Азии, Катар и Турция сталкиваются с различными вызовами в международных отношениях. Турция является крупной региональной державой со значительными экономическими и военными ресурсами. Катар — амбициозное небольшое государство с относительно ограниченными военными возможностями. Тем не менее, события «арабской весны» 2011 года и переход от однополярного к многополярному режиму создали новый этап для двусторонних отношений. За пятнадцать лет, прошедших с момента этих бурных событий, потрясших арабский мир, катарско-турецкие отношения развились до такой степени, что стали стратегическим партнерством для обеих стран. В данной статье рассматривается направление сотрудничества между малым государством и крупной державой во время экономической блокады Катара со стороны Саудовской Аравии, Египта, ОАЭ и Бахрейна в период с 2017 по 2021 год.*

Ключевые слова: *эмбарго, Катар, Турция, Персидский залив, региональная безопасность, экономическая блокада.*

Abstract. *Geographically located in the Southwest Asian region, Qatar and Turkey face various challenges in international relations. Turkey is a major regional power with significant economic and military resources. Qatar is an ambitious small state with relatively limited military capabilities. Nevertheless, the events of the Arab Spring in 2011 and the transition from unipolarity to multipolarity have created a new stage for bilateral relations. In the fifteen years since these turbulent events shook the Arab world, Qatari-Turkish relations have developed to the point where they have become a strategic partnership for both countries. This article examines the direction of*

cooperation between a small state and a major power during the economic blockade of Qatar by Saudi Arabia, Egypt, the UAE, and Bahrain between 2017 and 2021.

Keywords: *embargo, Qatar, Turkey, Persian Gulf, regional security, economic blockade.*

Kirish. Qatar-Turkiya munosabatlarining hozirgi davri Janubi-g‘arbiy Osiyodagi eng yaqin va eng samarali hamkorliklardan biri, 2022-yilda yuqori lavozimli turk amaldorlaridan biri tushuntirganidek, “sinergiya va uyg‘unlikda ishlaydigan haqiqiy birodarlik” sifatida baholanmoqda. Bu munosabatlarning ildizlari 2002-yilgi Turkiyadagi umumiy saylovlarda Rajab Toyyib Erdo‘g‘on hamda uning Adolat va Taraqqiyot Partiyasi (Adalet ve Kalkınma Partisi, AKP) ning g‘alabasiga borib taqaladi. 2008-yilga kelib Turkiya-Qatar biznes forumi ishga tushirildi bu keyingi o‘n besh yil ichida Qatarni Turkiyaning eng tez rivojlanayotgan iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylanishi uchun yo‘l ochdi. 2022-yilda ikki tomonlama savdo hajmi 2,5 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, vaholanki, bu ko‘rsatkich 2000-yilda 38 million AQSh dollaridan oshmagan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Maqolani yozishda Qatarning Al Jazeera xalqaro tarmog‘ida 2017-2023-yillar oralig‘ida e’lon qilingan rasmiy xabarlaridan, Turkiya siyosiy tadqiqotchilari bo‘lgan N.Battaloglu, A.Mohseni-Cheraghlou, Çetinoğlu Harunoğlu, B. Başkan va Ö. Pala kabi siyosiy tahlilchilarning maqolalaridan foydalanilgan.

2011-yilda Shimoliy Afrika va G‘arbiy Osiyodagi arab davlatlarini qamrab olgan xalq namoyishlari va isyonlari boshlanganidan so‘ng, Qatar va Turkiya o‘rtasidagi hamkorlik va xavfsizlik aloqalari ham tez sur’atlar bilan o‘sa boshladi. Bu aloqalarning ko‘lami 2017-yil iyunidan 2021-yil yanvarigacha Qatarga qarshi embargo paytida eng yaqqol ko'rinib turdi. O‘sha yillarda Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), Bahrayn va Misr boshchiligidagi davlatlar koalitsiyasi bir guruh kichik davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan holda Qatarga qarshi misli ko‘rilmagan iqtisodiy, madaniy va diplomatik embargoni boshladi. Embargo Fors ko‘rfazi hamkorlik kengashining (GCC) 36 yillik tarixidagi eng jiddiy ichki mojaroni boshlab berdi. Qatar va uning mintqadagi qo‘shnilari o‘rtasida avvaldan ma’lum bo‘lgan kelishmovchiliklardan farqli o‘laroq, embargo Qatarni bir kechada ma’lum bir ta’sirga ega bo‘lgan faol tashqi siyosat ishtirokchisidan dushman mintaqadagi qamal qilingan kichik davlatga aylantirish bilan tahdid qildi. Qatarning asosiy manfaatlarini unga qarshi bo‘lgan ancha kuchli koalitsiyadan himoya qilishdan boshqa chorasi qolmagan edi.

Muhokama. Qatar va koalitsiyaning to‘rtta a’zosi: Saudiya Arabistoni, BAA, Misr va Bahrayn o‘rtasidagi hajm va resurslardagi tafovutlar sezilarli darajada edi:

1) Qatarga qarshi koalitsiyaning bu yetakchi o‘yinchilari birgalikda Qatarnikidan 55 baravar ko‘p aholiga ega edi (2,5 millionga nisbatan 137 million kishi).

2) Ular Qatar davlatidan 279 baravar katta bo‘lgan umumiy hududni nazorat qilishdi (11 571 kv. km ga nisbatan 3 234 million kv. km);

3) 2015-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, koalitsiyaning umumiy harbiy xarajatlari Qatarnikidan 16 baravar ko‘p edi (112 871 milliard dollarga nisbatan 7 milliard AQSh dollari);

4) Koalitsiyaning umumiy yalpi ichki mahsuloti esa 2015-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, 11 baravar ko‘p edi (309 milliard dollarga 3,49 trillion nisbatda).

Nisbatan cheklangan harbiy imkoniyatlarga ega bo‘lgan kichik Qatar davlati uchun embargo boshlanganidan keyin Turkiyaning qo‘llab-quvvatlashi hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi, ikki davlatning qamaldan keying siyosiy hamkorlik tamoyillarini belgulab berdi. Qatarning Turkiya bilan yaqinlashuviga ikkita asosiy sabab mavjud edi:

1) Yuqorida aytib o‘tilgan koalitsiya kuchlari bilan ulkan nomutanosiblikni kamaytirish;

2) AQSh prezident Donald Trampning birinchi preezidentlik davrida (2017-2021) AQSh bilan ikki tomonlama munosabatlarning zaifligi o‘rnini qoplash.

Qatar mudofaa vaziri va Bosh vazir o‘rinbosari Xolid bin Muhammad Al-Attiya 2018-yil yanvar oyida Londonda bo‘lib o‘tgan uchrashuvda diplomatik tarzda tushuntirganidek, Turkiya bilan rivojlanayotgan munosabatlar Qatarning mudofaa qobiliyatini oshirish va diversifikatsiya qilish uchun strategik sheriklikni ko‘zlagan. 2018-yil fevralda ommaviy axborot vositalariga bergan intervyusida, Al-Attiyaga Saudiya Arabistoni yoki BAA embargo boshlanganidan keyin Qatarga harbiy yo‘l bilan bostirib kirishi mumkinligidan qo‘rquv bo‘lganmi degan mazmunda savol berishgan. Bunga javoban u *“Men qo‘rqaman deb ayta olmayman. Ularning harbiy yo‘l bilan aralashish niyatlari bor. Lekin bizning Turkiya bilan munosabatlarimiz harbiy yo‘l bilan aralashuv imkonini sezilarli darajada pasaytirishi mumkin”.* Bunday sharoitda, Qatarning embargoning dastlabki oylarida inqirozning salbiy ta’sirini yengib o‘tishdagi muvaffaqiyati, ayniqsa, har qanday harbiy eskalatsiyaning oldini olishdagi tashabbusini Turkiyaning embargo boshlanganidan keyin Qatarga har tomonlama yordami bilan izohlash mumkin.

2017-yilda “Al Jazeera” axborot tarmog‘ining sobiq boshqaruvchi direktori Vadah Xanfar Turkiyaning yordamisiz inqiroz ancha xavfliroq nuqtaga ko‘tarilishi mumkinligini ta’kidlagan edi. Arab davlatlari koalitsiyasining embargosi davrida Qatar-Turkiya munosabatlari harbiy jihatdan ham rivojlantirildi. Turkiyaning dastlabki yordami 2017-yil avgust oyida Qatar Qurolli Kuchlari bilan qo‘shma harbiy mashqlar

o‘tkazish bo‘lgan. Keyingi oyda Qatar amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Tani embargo boshlanganidan beri birinchi xorijiy safarini Turkiyaga amalga oshirgan. O‘z navbatida, Turkiya prezidenti Rejep Toyyib Erdo‘g‘on embargoning dastlabki besh oyida Dohaga ikki marta tashrif buyurgan, jumladan, 2017-yilda Dohada bo‘lib o‘tgan Turkiya-Qatar Oliy strategik qo‘mitasining uchinchi yig‘ilishida ishtirok etgan. Qatarning o‘sha paytdagi Turkiyadagi elchisi elchi Salem bin Muborak Al-Shafi Turkiyaning Anadolu agentligiga bergan intervyusida Turkiyaning bunday qat’iy qo‘llab-quvvatlashi juda muhim va zarur ekanligini ta’kidlagan. Ammo inqiroz boshida Turkiyaning bunday qat’iy qo'llab-quvvatlashi muqarrar emas edi. Faqat Qatar emas, balki Turkiya va barcha Fors ko‘rfazi arab monarxiyalari o‘rtasidagi munosabatlar XXI asrning birinchi o‘n yilligida ko‘plab jabhalarda tez rivojlandi. Ayniqsa, Saudiya Arabistoni va BAAga iqtisodiy faoliyatning ko‘plab sohalarida investitsiyalar kiritilishi bunga yaqqol misoldir. Embargo boshlangan paytga kelib, Turkiyaning Saudiya Arabistoni va BAA bilan savdo hajmi Qatar bilan savdo hajmidan ancha yuqori edi. Masalan, BAA 2017-yilda Turkiyaning eng yirik savdo sherigi bo‘lgan (14.6 mlrd AQSh dollari savdo aylanmasi).

Natijalar. Embargodan oldingi o‘n yillikda iqtisodiy jihatlar Turkiya-Fors ko‘rfazi arab davlatlari hamkorligining asosiy omili bo‘lgan bo‘lsa-da, rasmiy Anqaraning rivojlanayotgan tashqi siyosati va asosiy Arab davlatlari bilan munosabatlarni yaxshilash istagi ham munosabatlarning muhim sababi bo‘lgan. 2008-yilda Turkiya Fors ko‘rfazi hamkorlik kengashi (Gulf Cooperation Council) bilan strategik muloqot mexanizmi doirasida hamkorlik qilgan birinchi arab bo‘lmagan davlatga aylandi. 2011-yilgi hukumatga qarshi arab xalqi qo‘zg‘olonlari paytida va undan keyingi yillarda Anqara, Ar-Riyod va Abu-Dabi o‘rtasida ko‘plab kelishmovchiliklar yuzaga kelgan bo‘lsa-da, 2008-yilda Turkiya va Fors ko‘rfazi davlatlari o‘rtasida boshlangan strategik sohadagi misli ko‘rilmagan hamkorlik turk tafakkuriga ta’sir ko‘rsatishda davom etdi. 2013-yil iyul oyida Misrda prezident Muhammad Mursiy hukumatiga qarshi harbiy to‘ntarishdan keyin ham, bir tomondan Turkiya va Qatar, ikkinchi tomondan Saudiya Arabistoni va BAA o‘rtasida jiddiy keskinliklar kelib chiqishiga qaramasdan ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlik davom etdi. Eng muhimi, embargo boshlanishidan oldingi oylarda Turkiya-Saudiya munosabatlari Eronning Suriyadagi siyosiy roliga qarshi tanqidlar tufayli yaxshilandi. Masalan, 2016-yilda Saudiya-Turkiya ikki tomonlama strategik hamkorlik kengashi tuzildi va Saudiya qo‘shinlari Turkiyadagi qo‘shma harbiy mashqlarda ishtirok etdi. Shu sabablarga ko‘ra, boshqa manfaatdor tomonlar singari embargoning boshlanishi bilan “hayratda qolgan” Turkiya inqiroz boshida o‘zini betaraf vositachi sifatida namoyish etdi. Turkiya tashqi ishlar vaziri Mevlut Chovusho‘g‘li arab davlatlarini

“sunniy birodarlarimiz va do‘stlarimiz” deb ta’kidladi, Qatar va uga qo‘shni bo‘lgan arab davlatlari o‘rtasidagi normalizatsiyaga qaratilgan har qanday harakatlarni Turkiya tomonidan qo‘llab-quvvatlashni taklif etdi. Prezident Erdo‘g‘onning inqiroz haqidagi birinchi bayonoti Qatarni ochiqchasiga qo‘llab-quvvatlamadi, balki Fors ko‘rfazi hamkorlik kengashi a’zolarini o‘zaro kelishmovchiliklarni tinch muloqot orqali hal qilishga chaqirdi. Ammo AKP a’zolari bilan uchrashuvda Turkiya prezidenti “Biz qatarlik birodarlarimizni tashlab qo‘ymaymiz. Embargo butunlay bekor qilinishi kerak” deya ta’kidladi. Turkiyadagi asosiy muxolif partiya Respublika Xalq partiyasi (Cumhuriyet Halk Partisi, CHP) hukumatning Qatarni ochiqchasiga qo‘llab-quvvatlashiga qarshi edi. Qiyin ahvoldagi koalitsiyaning asosiy a’zolari Turkiyaning Qatarni qo‘llab-quvvatlashdagi “shoshilinch pozitsiyasi”ga salbiy munosabat bildirishdi. Xususan, BAA tashqi ishlar vaziri Shayx Abdulloh bin Zayd Ol Nahayon Turkiyaning harakatlarini tavsiflab, Turkiyaning bu qarori Anqaraning kelajakda inqirozda vositachilik rolini o‘ynash ehtimolini yo‘q qilganini ta’kidladi. Turkiyaning embargoda betaraf qolishini kutgan Saudiya Arabistoni rasmiylari ham Anqaraning ushbu qaroriga norozilik bildirishdi. Misr prezidenti Abdulfattoh as-Sisi Fors ko‘rfazi arab davlatlarini Qatarni qo‘llab-quvvatlagani uchun Turkiyani boykot qilishga chaqirdi.

Embargo joriy etilishidan oldin ham ba’zi kuzatuvchilar Turkiyaning Qatar bilan ikki tomonlama munosabatlarini Fors ko‘rfazi hamkorlik kengashi mamlakatlari bilan munosabatlardan ustun qo‘yish qarori imkoniyatlardan ko‘ra ko‘proq xavf tug‘diradi deb ta’kidlashgan edi. Iqtisodiy blokada boshlanganidan keyin embargo qo‘yuvchi koalitsiya (Saudiya Arabistoni, Misr, BAA va Bahrayn) Turkiya manfaatlariga qarshi safarbar etilgach, bu xavotirlar yanada dolzarb bo‘lib qoldi. Embargo qo‘yuvchi mamlakatlar Turkiyaning ham asosiy savdo sheriklari bo‘lib, Qatarni xalqaro maydonda ochiq qo‘llab-quvvatlash ular bilan ham aloqaning taranglashuviga olib kelish xavfini tug‘dirdi. 2017-yil iyul oyida BAA tashqi ishlar vaziri Armaniston poytaxti Yerevandagi Arman genotsidi yodgorligiga ramziy ma’noda tashrif buyurdi. Bu 1915-yilgi arman genotsidida ayblangan Usmoniylar imperiyasi va uning ambitsiyalariga ishora edi. Bu amaliy jihatdan Anqara uchun yanada tashvishli voqea bo‘lib, BAA, Saudiya Arabistoni va Misrning embargo davomida Shimoliy Suriyadagi PKK bo‘linmasi bo‘lgan Kurd xalq himoyasi bo‘linmalari bilan aloqalarini kuchaytirishiga olib keldi. Bu narsa Suriyadagi Turkiya manfaatlariga zid kelardi.

Iqtisodiy embargo boshlanganidan bir hafta o‘tgach, BBC Newsda “Nima uchun Turkiya Qatarni himoya qilmoqda?” sarlavhasi ostidagi maqola e’lon qilindi. Ushbu maqolada Turkiyaning embargo davrida Qatarni qo‘llab-quvvatlashini hosil qiluvchi kuch funksiyasi sifatida ko‘rib chiqish va tahlil qilish orqali bu savolga javob berishga

harakat qilingan, bunda kichikroq aktyor (Qatar) katta sherikni (Turkiya) o‘z nomidan va uning manfaatlari yo‘lida harakat qilishga ishontirish orqali siyosiy kuchga ega bo‘ladi. Qatarning embargo davrida Turkiyaga nisbatan tashqi siyosati bo‘yicha mavjud tadqiqotlarni uch guruhga bo‘lish mumkin. Birinchisi, embargodan oldin nashr etilgan adabiyotlarga asoslanadi, unda Qatar-Turkiya sherikligi mafkuraviy yo‘naltirilgan qadam sifatida tushunilishi kerakligi ta’kidlangan. Ushbu tushuntirishda Qatar embargo davrida Turkiyaning qo‘llab-quvvatlashiga sazovor bo‘ldi, chunki ikkala mamlakat ham arab bahori voqealaridan “Yaqin Sharqdagi status-kvoni buzuvchi inqilob tarafdori bo‘lgan davlatlar” sifatida chiqib ketishdi. Qatar embargodan oldingi yillar davomida islom e’tiqodiga asoslangan diplomatiya va tashqi siyosat aloqalarini amalga oshirdi. Shuningdek, Qatar va Turkiya oldingi o‘n yillikda bir xil mafkuraviy do‘stlar va dushmanlarga ega bo‘lgan. Biroq ikkinchi guruh “o‘rta yo‘l”ni ta’kidlaydi, bunda mafkura, iqtisodiyot va g‘azablangan qo‘shnilar ularni yaqinlashtirdi deb hisoblashadi. Ushbu pozitsiya tarafdorlari uchun embargo davrida Qatar-Turkiya munosabatlari ham moddiy, ham mafkuraviy omillar ta’sirida rivojlangan “gibrid sheriklik”ka misol qilib keltiriladi. Uchinchi guruh rasmiy Anqara va Doha o‘rtasidagi mafkuraviy aloqalar embargodan oldin ham, undan keyin ham nisbatan zaif bo‘lganini va mafkurani embargodan oldingi yaqin ikki tomonlama munosabatlarning ham, Turkiyaning blokada davrida Qatarni qo‘llab-quvvatlashining ham asosiy izohi sifatida ko‘rib bo‘lmasligini ta’kidladi. Buning o‘rniga ular moddiy omillarga ustuvorlik beradi. Qatar-Turkiya munosabatlari bo‘yicha embargodan oldin va undan keyin nisbatan keng adabiyotlarning hech biri bu ikki tomonlama aloqalarni hosilaviy kuch nuqtai nazaridan ko‘rib chiqmagan.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, hosilaviy kuch, xususan, katta davlat kichikroq sherikning manfaatlarini ko‘zlab, ikkinchisiga katta imtiyozlarni qo‘lga kiritish imkonini beradigan yo‘llar bilan harakat qilishni anglatadi. Bu holda Qatar quyida ko‘rib chiqiladigan turli xil kompensatsion kuchlar bilan bir qatorda o‘zining ta’sirchan moliyaviy va iqtisodiy resurslaridan foydalanib, kuchga ega bo‘ldi. Ushbu sa’y-harakatlarning maqsadi yirik ishtirokchiga (Turkiya) embargoga qat’iy qarshilik ko‘rsatishi Qatarning iqtisodiy va siyosiy suverenitetini mustahkamlash yo‘li bilan uning o‘z manfaatlari uchun foydali ekanligini, ayniqsa, strategik avtonomiyaga intilishining bir qismi sifatida ekanligini ko‘rsatish edi.

Xulosalar. “Zaif davlatlarning diplomatik san’ati boshqa kuchliroq davlatlarning kuchini o‘z manfaatlari yo‘lida qo‘lga kiritish, majburlash va iloji boricha manipulyatsiya qilishdan iborat” deb ta’kidlagan edi xalqaro ekspertlardan biri. Fors ko‘rfazidan tashqarida bunday yondashuvning so‘nggi ajoyib ifodalaridan biri Isroil bosh vaziri Benyamin Netanyaxuning 2019-yilda New York Times

gazetasiga bergan intervyusida Vashingtonga Eron yadroviy muammosiga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan sa’y-harakatlari haqidagi muhokamasi bo‘lgan. “Agar dunyodagi eng qudratli davlatni o‘z tomonimizga jalb qilish mumkin bo‘lsa, nega yolg‘iz kurashishimiz kerak?” Agar men jahon kuchini Eronga qarshi qo‘llay olsam... nega bunday bo‘lmasligi kerak?” – degan edi Netanyaxu.

Kichik davlatlar tomonidan xalqaro ishlarda o‘z ta’sirini kuchaytirish uchun amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan uch xil kuchdan biri sifatida hosilaviy kuchni ajratishda muhim kontseptual ahamiyatga egadir. 1990-yilda Iroqning Kuvaytga bosqini oldida Kuvayt cheklangan harbiy imkoniyatlarga ega yoki nisbiy jihatdan Isroilning Eron bilan mojarosida AQShga nisbatan bo‘lgani kabi bu yerda Isroil mintaqaviy kontekstda kuchli majburlash qobiliyatiga ega, ammo uning asosiy strategik sherigi bo‘lgan AQShdan ancha zaifroq. Ushbu vaziyatlarning har ikkalasida ham kichik davlat dushmani tomonidan yuzaga keladigan tahdidni bartaraf etish uchun mavjud bo‘lgan bazalarga mos keladigan kuchliroq ittifoqchisidan kuch manbasini olishga ustuvor ahamiyat beradi va e’tibor qaratadi. Shu nuqtai nazardan, hosilaviy kuch bazasidan foydalanish imkoniyatlari mavjud bo‘lganda kichik davlatning tashqi siyosat va xavfsizlik imkoniyatlari arsenalida juda muhim vositaga aylanishi mumkin.

Sovuq urush davrida shakllangan kichik davlatlar haqidagi adabiyotlarda xalqaro munosabatlarda davlatlarning xatti-harakatlarini belgilovchi asosiy omil hajmi ekanligi va kichik davlatlar mustaqil va proaktiv tashqi siyosat harakatlarini yurita olmasligi va xohlamasligi ta’kidlangan. Qatarning tashqi siyosiy xatti-harakatlari 1970-yillarning boshlaridan 1995-yilgacha, Shayx Hamad bin Xalifa Ol Tani hokimiyat tepasiga kelguniga qadar bunday hajm jihatdan cheklovlarni o‘zida aks ettirdi. O‘sha paytdan boshlab, rahbarlarining ambitsiyalari va global eksportchi sifatidagi yuksalish mavqei tufayli Qatar proaktiv va ko‘p qirrali tashqi siyosatni: Darfur (Sudan janubi), Efiopiya, Eritreya, G‘arbiy Sahroi Kabir, Livan, Falastin, Suriya va Yamanda amalga oshirdi. Ushbu asosiy mintaqaviy masalalarning barchasida Qatar mamlakatning hajmidagi farqlarga qaramay, yirik ishtirokchilar bilan raqobatlashishga tayyor edi. 2008-yilda Qatar Dohada bo‘lib o‘tgan tinchlik konferensiyasida Livanning barcha qarama-qarshi guruhlarini, jumladan, Eron tarafdori va G‘arbga qarshi Hizbullohni birlashtirganida Saudiya Arabistoni-Qatar munosabatlariga sovuqchilik tushdi. Keyingi yili Qatar AQSh, Saudiya Arabistoni hamda Misrni HAMAS va FATX boshchiligidagi Falastin ma’muriyati o‘rtasidagi munosabatlarning buzilishiga vositachilik qilishga urinishlari tufayli vaziyat yanada keskinlashdi. Qatarning zamonaviy arab tizimida tobora muhim rol o‘ynaydigan aktyor sifatidagi maqomi 2011-yilgi arab qo‘zg‘olonlari davrida avj oldi. Qatarning Al-Jazira yangiliklar tarmog‘i Tunis, Liviya va Misrda voqealarni yoritishda va

rejimga qarshi kayfiyatni saqlab qolishda markaziy rol o‘ynadi. Qatar shuningdek, Liviyaning Milliy Muvaqqat O‘tish Kengashini tan olgan birinchi davlatlardan biri, Suriyadagi elchisini chaqirib olgan va Damashqdagi elchixonasini yopgan birinchi Fors ko‘rfazi davlati bo‘ldi. Arab qo‘zg‘olonlaridan oldin Qatar islomiy guruhlarni, jumladan, Tunis va Misrdagi “Musulmon birodarlar” tashkilotining turli bo‘limlarini, shuningdek, G‘azo sektorida hukmronlik qilayotgan HAMAS harakatini qo‘llab-quvvatlagan. 2012-yilda HAMAS siyosiy byurosi Damashqdagi ofisini yopgandan so‘ng, Dohaga ko‘chib o‘tdi. Qatar shuningdek, 2011-yilda Misr prezidenti Husni Muborak hokimiyatdan ag‘darilgandan so‘ng, Misrdagi “Musulmon Birodarlar” hukumatini qo‘llab-quvvatladi. Bunga javoban Saudiya Arabistoni va BAA Qatarni Fors ko‘rfazi va G‘arbning milliy xavfsizlik maqsadlariga putur yetkazadigan radikal mafkuraviy maqsadlarga sodiqlikda aybladi. Bu ziddiyatlar Qatar va Saudiya-BAAning Yaqin Sharq kelajagi haqidagi qarama-qarshi rejalarini yoritib berdi va Qatarni mintaqaviy status-kvoni qo‘llab-quvvatlashga sodiq bo‘lgan Fors ko‘rfazi hamkorlik kengashi hamkorlari bilan tobora ziddiyatga soldi. Bu kelishmovchiliklar tomonlarning Qatarning kichikligi haqidagi turlicha qarashlari tufayli yanada kuchaydi. Qatar o‘zining ixcham aholisi va hududini yoki harbiy salohiyatining yo‘qligini mustaqil tashqi siyosat yoki mintaqaviy ta’sirga to‘siq sifatida ko‘rmadi. Saudiya Arabistoni va BAA kelishmovchilikka duch kelishdi va arab bahoridagi notinchlikdan so‘ng, ular Qatarni o‘ziga bo‘ysunuvchi maqomni qabul qilishga undashdi. Natijada 2014-yil mart oyida Saudiya Arabistoni, BAA va Bahrayn Dohadan o‘z elchilarini chaqirib oldilar va Fors ko‘rfazi hamkorlik kengashi hamkoriga qarshi sanksiyalar qo‘llash bilan tahdid qildilar. Ushbu misli ko‘rilmagan diplomatik boykot Dohaga Suriya, Misr va Liviyadagi turlicha siyosati hamda Eron va “Musulmon birodarlar” tashkilotiga nisbatan yondashuviga endi Fors ko‘rfazidagi yirik kuchlar tomonidan toqat qilinmasligini anglatdi. Qatar singari Turkiya ham arab qo‘zg‘olonlari paytida mintaqadagi nufuzli nodavlat islomiy guruhlarga siyosiy va diplomatik yordam ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Battaloglu, N.H. 2023. Reflecting on the Turkey-Qatar Partnership, Fifty Years Later. Gulf International Forum, https://gulfif.org/reflecting-on-the-turkey-qatar-partnership-fifty-years-later/
2. Başkan, B., and Ö. Pala. 2020. Making Sense of Turkey’s Reaction to the Qatar Crisis. The International Spectator 55 (2): P 67.
3. Daily Sabah. 2022a. President Erdoğan, Qatari emir discuss bilateral ties in Istanbul. 13 May https:// www.dailysabah.com/politics/diplomacy/president-erdogan-qatari-emir-discuss-bilateral-ties-in-istanbul
4. Dickinson, E. 2014. The case against Qatar. Foreign Policy, 30 September. http://foreignpolicy.com/2014/09/30/the-case-against-qatar/

5. Daily Sabah. 2022a. President Erdoğan, Qatari emir discuss bilateral ties in Istanbul. 13 May https:// www.dailysabah.com/politics/diplomacy/president-erdogan-qatari-emir-discuss-bilateral-ties-inistanbul.
6. Mohseni-Cheraghlou A. (2021) Ties Between Qatar and Turkey are as Strong as Ever, HBKU, 14 March, https://www.hbku.edu.qa/en/news/ties-between-qatar-turkey
7. Çetinoğlu Harunoğlu, N. 2016. Turkey's Intensifying Partnership with Qatar and Its implications for Turkish-American Relations. Middle East Review of International Affairs 20 (3): P 3.
8. Sharjah 24. 2017. Abdullah bin Zayed Visits Armenian Genocide Memorial, Pays Respect to Victims. 19 July https://www.sharjah24.ae/en/uae/238778-abdullah-bin-zayed-visits
9. Cafiero, G. 2019. To Counter Turkey, Saudi Arabia Backs the YPG in Syria. Politics Today, 28 March https://politicstoday.org/to-counter-turkey-saudi-arabia-backs-the-ypg-in-syria/
10. Girit. S. 2017. Why is turkey standing up for Qatar? BBC News, 14 June https://www.bbc.com/news/worldmiddle-east-40262713.
11. Cüneyt Özşahin, M. 2021. Qatar-Turkey Rapprochement: Challenging the Regional Status Quo in the Gulf Security Sub-complex. In The 2017 Gulf Crisis: An Interdisciplinary Approach, ed. M. Zweiri, A. Kamal, and M.M. Rahman, 35–49. New York: Springer.
12. The Economist. 2021. How Qatar and Turkey came together. 21 January https:// www.economist.com/middle-east-and-africa/2021/01/21/how-qatar-and-turkey-came-together
13. Yetim, M., and I.N. Telci. 2023. Another "Third Way" to Narrate the Existing Alliances in the Middle East: Turkey-Qatar, Saudi Arabia- UAE, and Iran-Syria. Journal of Balkan and near Eastern Studies 25 (3):484–505.
14. Engin Yuksel, E. 2021. Turkey's love-in with Qatar. Clingendael, January, https://www.cling endael. org/pub/2021/drivers-of-turkish-qatari-relations/.
15. Handel, M. 1981. Weak States in the International System. London: Frank Cass.
16. The New York Times. 2020. How Months of Miscalculation Led the U.S. and Iran to the Brink of War. 14 February https://www.nytimes.com/2020/02/13/us/politics/iran-trump-administration.html.
17. Long, T. 2017a. It's Not Size, It's the Relationship: From 'Small States' to Asymmetry. International Politics 54 (2): P 144.
18. Keohane, R. 1969. Lilliputians' Dilemmas: Small States in International Politics. International Organization 23 (2): 291–310.
19. Jervis, R. 1978. Cooperation under the Security Dilemma. World Politics 30: 167–214.
20. Abadi, J. 2004. Qatar's Foreign Policy: The Quest for National Security and Territorial Integrity. Journal of South Asian and Middle Eastern Studies 27: P 14.
21. Miller, R. 2016. Desert Kingdoms to Global Powers: The Rise of the Arab Gulf. New Haven: Yale University Press.
22. Woertz, E. 2012. Qatar and Europe's neglect of the Gulf Region. Notes Internacionals, CIDOB, P 46.